

**TILSHUNOSLIKDA FRAZELOGIK BIRLIKLARNING
LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARIGA OID
TADQIQOTLAR SHARHI**

Maxmudova Fayyoza

ALFRAGANUS universiteti magistranti

Annotatsiya: O'zbek tilida frazeologizmlar — bu tilning boyligini, madaniyatini va xalqning dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim unsurlardir. Frazeologizm so'zining o'zi "frazeo" — ibora, "logiya" — o'rganish degan ma'noni anglatadi. Shunday qilib, frazeologizm — bu bir yoki bir nechta so'zlardan iborat bo'lib, o'z ichida ma'lum bir ma'noni ifodalovchi iboradir. O'zbek tilida frazeologizmlar ko'plab turli shakllarda uchraydi va ularning har biri o'ziga xos ma'no va hissiyotlarni ifodalaydi.

Kalit soʻzlar: oʻzbek tili, frazeologizmlar, madaniyat, soʻz, maʼno, til, madaniy kontekst l, lingvokulturologiya.

Аннотация: Фразеологизмы в узбекском языке являются важными элементами, отражающими богатство языка, культуры и мировоззрения народа. Само слово фразеологизм означает «фразео» — словосочетание, «логия» — учение. Таким образом, фразеология – это словосочетание, состоящее из одного или нескольких слов и выражающее само по себе определенное значение. В узбекском языке фразеологизмы встречаются в самых разных формах, и каждая из них выражает свой смысл и эмоции.

Ключевые слова: узбекский язык, фразеология, культура, слово, значение, язык, культурный контекст, лингвокультурология.

Abstract: Phraseologisms in the Uzbek language are important elements that reflect the richness of the language, culture and worldview of the people. The word phraseologism itself means "frazeo" - phrase, "logia" - study. Thus, a phraseology is a phrase that consists of one or more words and expresses a certain meaning in itself. In the Uzbek language, phraseologisms are found in many different forms, and each of them expresses its own meaning and emotions.

Key words: Uzbek language, phraseology, culture, word, meaning, language, cultural context, linguoculturology.

Bugungi kun tilshunosligining yetakchi yoʻnalishlaridan biri boʻlgan lingvokulturologiya oʻtgan asrning soʻnggi choragida shakllana boshladi. Tadqiqotchilarning taʼkidlashicha, “lingvokulturologiya” termini V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bogʻliq ravishda paydo boʻldi.

Lingvokulturologiya til va madaniyatniyatning aloqadorligi hamda uyg'unlashuvi asosida shakllangan tilshunoslikdagi yangi sohadir. Til va madaniyat fenomenlarining o'zaro bog'liqligi haqidagi masalani o'rganish, ko'p holatlarda murakkab, ko'p qirrali, ko'p qiyofali ijtimoiy hodisalar sirasiga kiruvchi madaniyat tushunchasining aniq ta'rifi yo'qligi sababli qiyinlashgan. “Madaniyat ijtimoiy hodisa sifatida muayyan odamlar jamoasi tomonidan to'plangan va to'planib kelayotgan moddiy-ma'naviy qadriyatlar majmuyi, jamoa ijtimoiy faolligi mahsuli: u tarixiy genezisga ega va alohida shaxsning shakllanishida muhim rol o'ynaydi”. Shuni aytish lozimki, til madaniyatni yoki madaniy boylikni kelgusi avlodlarga yetkazuvchi nihoyatda muhim va qudratli kuchga ega bo'lgan vositadir. Til insonning eng yuksak darajadagi mulkidir. U insonning, etnos(xalq)ning xarakterini yorqin ifodalaydi, dunyoviy madaniyat bilan aloqasini belgilaydi. Qolaversa, til millat degan ulug'vor tushunchani shakllantiruvchi, unga asosiy ozuqani beruvchi unsur hisoblanadi. Lingvokulturologiya borasida salmoqli tadqiqotlarni amalga oshirgan V.A. Maslovaning ta'kidlanishicha, frazeologizmlar to'g'ridan-to'g'ri yoki assotsiativ tarzda u yoki bu xalqning dunyo, jamiyat haqidagi axborotlarni madaniy-milliy prizma orqali yetkazadi, shu xalq dunyoqarashining xarakterli xususiyatlarini ko'rsatadi, ayni paytda, uning dunyoqarashini ham belgilaydi. Shuning uchun ham biror xalqning tilini yaxshiroq bilish uchun uning madaniyati va millatini o'rganmoq lozim.

Etnosda eng muhim aloqa vositasi bo'lgan til, urug', qabila, elat, millat ko'rinishdagi kishilarning ijtimoiy guruhi orasida paydo jamoaning birlashgan shakli bo'lib xizmat qiladi. Etnos-bu insonlarni ichki tomondan, madaniy-ma'naviy jihatdan birlashtiradi. Ijtimoiy guruhlar lisoniy guruh sifatida shakllanadi, chunki ularni bir-birisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, xalq va tilni bir-birisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham, etnos va tilni ko'p hollarda bir tushuncha atrofida tushuniladi.

Ma'lumki, ijtimoiy fanlarda etnos tushunchasini xalq ma'nosida ham qo'llaydilar. Bu tushuncha madaniyat, til tushunchalari bilan bevosita bog'langan shuning uchun ham ruscha-o'zbekcha lug'atda etnik yoki etnos tushunchasi biror bir xalqqa va uning madaniyatiga oid tushuncha deb qaraladi.

Darvoqe, madaniyat ana shu etnos (xalq)ning ijtimoiy va tarixiy jarayonida vujudga kelgan, jamiyat taraqqiyotida tarixan erishilgan, sivilizatsiya bosqichini xarakterlaydigan moddiy va ma'naviy xususiyatlarining majmuidir. Falsafa lug'atida madaniyat tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: Madaniyat (lotincha cultura parvarish qilish, ishlov berish)-ijtimoiy tarixiy praktika prosessida insoniyat yaratgan va yaratayotgan hamda jamiyat taraqqiyotida tarixan erishilgan bosqichni xarakterlaydigan moddiy va ma'naviy qimmatdorliklar majmuidir.

Til ham etnos va madaniyat bilan bog'liq bo'lgan va ularni yuzaga chiqaruvchi, vujudga keltiruvchi vosita sanaladi. Bular ichida til hukmron hisoblanadi. Bunda

tilning noyoblighi shundaki, u boshqalari bilan uzviy bog‘langan, uni operatsion tizm, boshqa dasturlar uchun o‘ziga xos qobiq bilan qiyoslash mumkin.

Tildagi etnik xarakterning yaqqol misoli ona tilini his qilishdir. Barcha xalqlarda til milliy his-tuyg‘u va ong bilan uzviy bog‘langan. Insonning o‘z ona tiliga yaqinlik tuyg‘usi har bir tilda obrazli tafakkurning takrorlanmas assotsialarning mavjudligi bilan tushuntiriladi. Ular har bir so‘zning o‘ziga xos semantik to‘liqligiga – madaniy mazmunga ega bo‘lishi kerak. Ular til tizmida mustahkamlanadi va uning o‘ziga xosligini tashkil etadi.

Bunda biz insonni u yashayotgan va harakatda bo‘lgan jamiyat orqali bilsak, uning so‘zlashayotgan tiliga qarab qaysi millatga xosligi va madaniy darajasi haqida fikr yuritishimiz mumkin bo‘ladi. Xalq tili xalq tafakkuri oynasidir. Har bir millatning aqliy tuzulishi o‘z tilida stereotip sifatida shakllanadi. Bu narsa lingvokulturologiya sohasidagi fanlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi va ularning rivojiga kuchli turtki berdi.

Til xalqlarning aqliy qobiliyatlari bilan bog‘liq. Ong va madaniyat, til va madaniyat kabi tushunchalar bir-biri bilan go‘yo et va tirnoqday bular har doim biri ikkinchisiz shakllanaolmaydi.

Ma‘lumki, til tashqi olamga ma‘no orqali bog‘lanadi. Til belgilari ortida turuvchi hodisalarni o‘rganish inson bilish faoliyati va nutqiy faoliyat aloqasini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Frazologizmlar ham xalqlar madaniyatini ko‘rsatib beruvchi til birliklaridan biri sanaladi shuning uchun ham frazemalarni lingvokulturologiyaning obykti sifatida qarashimiz mumkin bo‘ladi. Frazologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlari ularning ekstralingvistik omillaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Ekstralingvistik omillar deganda, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy shart-sharoitlar, funksional va tilning ichki strukturaviy rivojlanishi sharoitlari, frazeologik birliklarning rivojlanishi va hosil bo‘lishida katta ahamiyatga ega bo‘ladigan, ularning milliy xarakterini ko‘rsatib berishga sabab bo‘ladigan omillar yig‘indisi tushuniladi. Lingvokulturologik yondashuvga ko‘ra frazeologizmlar milliy madaniyat, milliy mentalitet, milliy qadriyat xususiyatlarini aks ettiruvchi til qatlamidir.

Milliy qadriyatlar bu - millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega bo‘lgan moddiy va ma‘naviy boyliklar yig‘indisidir. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, kelajagi, avlodi, ijtimoiy qatlami, milliy ongi, tili, ma‘naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog‘liq. Bizning milliy qadriyatlarimiz tug‘ilgan makon va ona yurtga ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, muomalada mulozamat, hayo-andisha kabilarning ustivorligi bilan xarakterlanadi. Frazologizmlarning xalq mentaliteti bilan bog‘liqligini tadqiq qilgan lingvomadaniyatshunoslik prinsiplariga asoslanadi. Lingvokulturologiyaga oid adabiyotlarda frazeologizmlar ham tilning lingvomadaniy boyligi sifatida e‘tirof etiladi. Turli millatlarda mentalitet va madaniy an‘analariga ko‘ra, frazemalar muloqat maqsadi va holatiga qarab turlicha qo‘llaniladi,

tushuniladi va kommunikativ maqsadga yo‘nalganlik noan‘anaviy tarzda anglashiladi. Bundan tashqari, muayyan mamlakat, geografik hududga qarab bir-biridan farqlanadi. Fikrlarimizning isboti o‘laroq o‘zbek xalqining o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi frazemalardan namunalar keltiramiz: **Afrosiyobdan** qolgan, yelkasi **chopon** ko‘rmagan; to‘ydan oldin **nog‘ora** chalmoq; **lafzi** halol; quloqqa **azon** aytmoq; belida **belbog‘i** bor; **ola xurjun** yelkasiga tushmoq; **patir** ushatmoq; **paytavasiga** qurt tushmoq; **rizqini** terib yemoq; **supradagi** unga qaramay **tandirga** o‘t qalamoq; **Qo‘qonda** tekkan dard; “puf”desa, **Buxoroga** uchadigan; xamir uchidan **patir**; bosh omon bo‘lsa **do‘ppi** topilar; **og‘ziga tolqon** solmoq; **nomusi** bukildi; boshiga **baxt qushi** qo‘ndi, har kim o‘z **aravasini** tortmoq, **atlas** ko‘ylakka **bo‘z** yamoq, **alifni** kaltak deyolmaslik, **zuvalasi** pishiq, **almisoqdan** qolgan, **kalavasini** yo‘qotmoq, to‘rt tarafi **qibla**, **anqoning** urug‘i, **diydor** ko‘rishmoq, **kavushini** to‘g‘irlab qo‘ymoq, ko‘zlarining **paxtasini** chiqarmoq, **sabr** kosasi to‘lmoq, otdan tushsa ham **egardan** tushmaslik, otdan tushsa ham **uzangidan** tushmaslik, **to‘nini** teskari kiyib olmoq, **imoni** komil, **ixlosini** qaytarmoq, **ixlos** qo‘ymoq, **tuya** ko‘ridingmi yo‘q, tog‘ni **tolqon** qiladigan, qo‘lini **bigiz** qilmoq, **zig‘ir** yog‘day ko‘ngliga urmoq, **do‘ppi** ol desa, kalla olmoq, soyasiga **ko‘rpacha** solmoq, **miridan** sirigacha, onasini **uchqo‘rg‘ondan** ko‘rsatmoq, dumi **xurjunda** kabilar.

Mazkur frazemalarning barchasida o‘zbek xalqi ishlatadigan kiyimlar, buyumlar, milliylikka xos mavhum tushunchalar o‘zbek xalqiga xos joy nomlari qatnashgan va bunda xalqning o‘ziga xos fikrlash tarzi, urf-odati, madaniyati aks etgan. Shuning uchun insonlarning tilidagi rang-barangliklar xalq madaniyatining, kechinmalarining turfa xilligini ko‘rsatib beradi. Demak, frazeologizmlarning markazida turuvchi, yani etalon sifatida olingan komponentlar o‘zbek tilining lingvokulturologik xususiyatlarini ko‘rsatuvchi lingvokulturemalardan biri sanaladi.

Yuqoridagi misollar ma‘lum bo‘lishicha, bu misollarda milliylikni tashiydigan so‘zlar orqali o‘zbek xalqining frazeologiyasining o‘ziga xos frazemasini hisoblansa, quyidagi frazemalar esa ma‘lum bir so‘z orqali emas butunligicha mentallikni aks ettiradigan frazeologiya sifatida qaraladi. Jumladan, ko‘zi qiymaydi, bir yoqadan bosh chiqarmoq, og‘iz solmoq, maslahatni bir yerga qo‘ymoq, beti chidamaslik, bir jon-u bir tan bo‘lmoq, beti shuvut bo‘lmoq, bel olishmoq, yetti buklanib, yo‘l bo‘lsin, non ushotmoq, ko‘zi tirikligida, til bormaslik, ep bilmaslik, ep ko‘rmamaslik, yuzi yerga qaradi, yulduzlari to‘g‘ri kelmoq, yuragi achishdi, o‘z yog‘iga o‘zi qovrulmoq, o‘zini o‘zi yeb qo‘ymoq, o‘tqazgani joy topolmaslik, quling o‘rgilsin, kindik qoni to‘kilgan, yelkasi yerga tegmagan, qulog‘ini tishlab qo‘ygan kabi bir nechta frazeologizmlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Til o‘z sohibi bilan birgalikda o‘rganilar ekan, tabiiyki, uning maqbul tavsifi ham mansub millat madaniyati va mentaliteti bilan birga olib qaralgandagina beriladi. Ana shu jihat, ya‘ni til va milliy-madaniy jipslik lingvokulturologik tadqiqotlarning

markazida turadi. Albatta, tildagi har qanday birlik u yoki bu darajada milliy-madaniy oʻziga xosliklarni namoyon etadi. Ammo shunday til birliklari borki, ular milliy-madaniy injaliklarning benihoya betakror timsolidir. Shu maʼnoda frazeologizmlar milliy mentaliteti, madaniyati, turmush tarzi hamda uzoq yillik kuzatuvlarning qabariq ifodasidir.

Frazeologizmlarni tadqiq qilishda, ikki til frazemalarini qiyoslaganda, yaʼni oʻzbek va ingliz tillaridagi frazeologizmlarni qiyoslab oʻrganilganda til va madaniyat tushunchalarining uzviyligi yorqin koʻringan. Buni misollar orqali koʻrib chiqamiz.

Oʻzbek va ingliz tillaridagi frazeologizmlarni oʻrganish jarayonida farqli va oʻxshash iboralarga ajratdik.

Oʻxshash iboralar:

INGLIZ TILI VARIANTI

OʻZBEK TILI VARIANTI

Ears are burning(qulogʻi kuyyapti)
 Evil eye(shayton koʻz)
 Fight like cats and dogs
 (mushuk va itga oʻxshab urshmoq)
 A cat has nine lives
 (mushukning toʻqqizta joni bor)
 Ears become red
 (qulogʻi qizarmoq)
 As wild as a tiger
 (yoʻlbarsday yovvoyi)
 As hungry as a bear
 (ayiqday och)

Qulogʻi qiziyapti
 Koʻz tegmoq
 It-mushuk boʻlmoq
 Ayolning qirqta joni bor
 Yuzi qizarmoq
 Yovvoyi mushukday
 Och boʻriday

Ikkita xalq frazeologizmlari bir biridan farq qilishi tabiiy holat. Demak, farqli tomonlarini milliylikka xos vositalar orqali koʻrishimiz mumkin. Ular quyidagi vositalar orqali farqlanadi:

-milliy bosh kiyimlar

Doʻppisini osmonga otmoq–xursand boʻlmoq
 Doʻppisi yarimta – gʻam yemasdan, shod-xurram boʻlmoq
 Doʻppisi tor keldi - ilajsiz boʻlmoq
 Bosh omon boʻlsa doʻppi topilar - sogʻliq boʻlsa hammasi boʻladi
 Old hat(eski shlyapa) - barcha eskirib qolgan narsalarga nisbatan ishlatiladi
 Pass the hat(shlyapani uzatmoq) - pul yigʻmoq maʼnosida
 Wear several hats(bir necha shlyapa kiymoq)- koʻp masʼuliyatga ega boʻlmoq

Talk through one's hat (birovning shlyapasi orqali gapirmoq)-
tushunmasdan, bilmasdan gapirmoq

-milliy kiyimlar

To'nni teskari kiyimoq - qaysarlik qilmoq

Gapga to'n kiygizmoq - gapga usta

Lose one's shirt(fudbolka yo'qotmoq) - boridan ajralmoq ma'nosida qo'llanadi

-iste'mol mahsulotlari

Chuchvarani xom sanamoq - yanglishmoq

Og'ziga tolqon solmoq-hech narsa demaslik

As warm as Toast(tostdek issiq) - biror joyning issiqligi nisbatan ishlatiladi.

-mevalar

Puch yong'oq bilan qo'ynini to'ldirmoq - aldamoq

Buy a lemon(limon sotib olmoq) - keraksiz narsa olmoq ma'nosida ishlatiladi.

-hayvonlar

Ignadek gapni tuyadek qilmoq - bo'rttirmoq

As busy as a beaver(qunduzdek band) - juda band bo'lish

-tana a'zolari

Og'iz solmoq - qayliq yoki kuyov qilish niyati borligini aytmoq

Ko'z qiymaydi - ko'ngilchanlik tufayli botina olmaslik

Born with a silver spoon in one's mouth(og'zida kumush qoshiq bilan tug'ilmoq)
- boy oilada tug'ilmoq.

Yuqoridagi o'rganilgan frazeologizmlarning aksariyati o'zbek va ingliz millatining an'anaviy fikrlash tarzi, ijodiy tafakkuri, milliy mentalitetning o'ziga xosligi va subyektiv munosabati o'z ifodasini topgan. Binobarin, bu kabi frazeologizmlar milliy-madaniy belgilarni o'zida saqlovchi va ularning davomiyligini ta'minlovchi, tilning yaratuvchanlik imkoniyatini ko'rsatuvchi lingvomadaniy birliklar sifatida xalqlarning madaniyatini tushunish va chuqurroq o'rganishga yordam beradi. Xullas, til so'z qanchalik qadimiy bo'lsa, frazeologizmlar ham shunday qadimiy tarixga ega bo'lgan birliklar sanaladi

Xulosa qilib aytganda, lingvokulturologik yondoshuvlarga ko'ra frazeologizmlar muayyan xalqning o'tmish madaniyati bilan bog'liq qadriyatlarini, milliy-mental fikrlash tarzini namoyon etuvchi, shuningdek, real voqelikni lison vositasida ifodalash darajasini ko'rsatuvchi dalil hamdir. Ular o'zida xalqning ijtimoiy, ma'naviy jihatdan rivojlanishini ham ko'rsatuvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Ularni lingvokulturologik jihatdan keng tadqiq etish esa hozirgi kun tilshunosligida o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov, A. (2005). "O'zbek frazeologiyasi: nazariya va amaliyot". Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
2. Jumanov, B. (2010). "O'zbek tilidagi frazeologik birliklar va ularning madaniy ahamiyati". Tashkent: Fan va texnologiya.
3. Qodirov, A. (2012). "Frazeologizm va ularning lingvokulturologik jihatlar". Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
4. Ахунзянов Г.Х. Идиомы (исследование на материале татарского языка). АДД. - Казань.: 1972
5. Xolmatov, S. (2016). "Lingvokulturologiya: nazariy asoslar va amaliy tadqiqotlar". Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.
6. Tursunov, A. (2018). "O'zbek frazeologizmlarining madaniy konteksti". Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
7. Murodov, D. (2019). "Frazeologizm va ularning tilshunoslikdagi o'rni". Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
8. Isroilov, I. (2020). "O'zbek tilidagi frazeologik birliklar va ularning lingvokulturologik tadqiqi". Tashkent: Fan va texnologiya.
9. Karimov, R. (2021). "Frazeologizm va madaniyat: o'zaro aloqalar". Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
10. Sultonov, E. (2022). "O'zbek tilidagi frazeologizmlar: tarix va zamon". Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.
11. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi.-Toshkent: Fan,2013. Верещагин Е.М., Костомаров Г. Язык и культура:
12. Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. – М.: Русский язык, 1990. – С. 18.
13. Mahnudov N., Odilov Y. So'z ma'no taraqqiyotida ziddiyat. O'zbek tili enatiosemik so'zlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2014.
14. Teshaboyeva D. Ommaviy axborot vositalari tilning nutq madaniyati aspektida tadqiqi: Filol.fanlari d-ri...diss.avto-ref.-Toshkent,2012.-B.16.
15. Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы.-М.,1997;
16. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati.-Toshkent: O'qituvchi,1978.
17. Mahmudov N., Odilov Y. So'z ma'no taraqqiyotida ziddiyat. O'zbek tili enatiosemik so'zlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2014.